


Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov hududlarga tashrifi davomida 2024 yil hosili uchun g'alla ekish ishlarini tizimli va sifatli amalga oshirishga bag'ishlangan seminarlarda ham ishtirok etdi.



Unda Angor, Muzrabot, Sherobod, Qiziriq va Bandixon tumanlarida kuzgi boshog'li don ekish ishlarini tizimli tashkil etish hamda qisqa muddatlarda sifatli yakunlash, sug'orish va to'liq ko'chat olish masalalari muhokama qilinib, mas'ullarga aniq vazifalar belgilab berildi.

Ma'lumot uchun, 2024 yil hosili uchun Angor tumanida 7 000 gektar, Muzrabot tumanida 11 300 gektar, Sherobod tumanida 10 580 gektar, Qiziriq tumanida 10 190 gektar va Bandixon tumanida 4 988 gektar maydonda g'alla ekish rejalashtirilgan.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)